

Insoniyat uzoq vaqt davomida hech qanday chora ko'rmadi, shuning uchun olimlarning fikriga ko'ra, hozirda vaziyat umid baxsh etmaydi. Ammo Yer yuzida qazib olinadigan yoqilg'i bor ekan, harakat qilish uchun hali ham kech emas. Atmosferaning qizishi faqat issiqxona gazlari chiqindilari nolga tushirilganidagina, potensial boshqarilishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichga keladi. Yaxshi yangilik: avtomobillar uchun yoqilg'i tejamkorligi standartlari, jiddiy qurilish qoidalari va elektr stansiyalari uchun emissiya chegaralari kabi dasturlar natijasida hozirda ko'plab mamlakatlarda gaz chiqindilari miqdori kamaymoqda. Ammo mutaxassislar iqlim o'zgarishining eng yomon oqibatlarini oldini olish uchun qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish jarayonini sezilarli darajada tezlashtirish kerak, degan fikrda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xtayev A.S. "Ekologiya o'quv qo'llanma". Toshkent. -1998 y.
2. Ergashev A. "Umumiy ekologiya". Darslik. Toshkent. -2003 y.
3. Sultonov P.S. "Ekologiya va atrof –muhitning muhofaza qilish asoslari". T. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent. -2007 y.
4. Xo'janazarov O'.E., Yoqubjonov SH. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma. Toshkent. -2018 y.

UGLEROD NEYTRALLIGI – UNGA ERISHISH YO'LLARI

Ramazonov B.G, Qayumov A., Sadullayeva D.

b.ramazonov75@mail.ru

Buxoro muhandislik texnologiya instituti

Bugungi fan-texnika, sanoat ishlab chiqarishi rivojlanib borayotgan davrda insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri – bu ekologiya va atrof-muhit masalasi bo'lib qolmoqda. Bu borada, ya'ni ekologiya haqida so'z borganda "uglerod neytralligi" degan ibora so'ggi yillarda tez-tez ishlatilyapti. Bu qanday ibora, uning ma'nosi nima, shu to'g'risida to'xtalsak. Hammamizga ma'lumki so'nggi yillar ichida sayyoramizda o'rtacha yillik havo harorati 0,5 darajaga ko'tarilib boryapti. Haroratning bu darajadagi ko'tarilishi u qadar yuqori bo'lmasada, bir necha yilda bu ko'rsatkich sezilarli darajada bo'lishi va bu borada tabiat bunga albatta o'z munosabatini bildirmay qolmaydi: abadiy muzliklar abadiy bo'lishini to'xtatadi, tuproq quriydi, bir vaqtlar yam-yashil o'simliklar bilan burkangan mintaqalar o'rnida tobora ko'proq cho'llar paydo bo'ladi. Xo'sh, haroratning ko'tarilishiga insoniyatning qanday aloqasi bor deyishimiz mumkin. Albatta aloqasi bor, sababi inson o'zining kun sayin ortib borayotgan har sohadagi talab va ehtihojlarini qondirish maqsadida sanoatni jadal ishlashi va rivojlanib borishga majbur qilmoqda. Bu esa o'z navbatida tabiatda o'z aksini topmasdan qolmayapti. Bular millionlab avtomobillarning yoqilg'i sarfi hisobiga harakatlanishi, yirik zavod, fabrikalardan chiqib turgan CO₂ gazi miqdorining keskin ko'payib borayotganligidir. Yaqin paytlargacha tabiat insoniyatning ishlab chiqarish va sanoat chiqindilarini neytrallash, uglerod izi bilan kurashishni uddalab kelayotgandi, lekin bugungi kunga kelib tabiat ham bu jarayon oldida ojizlik qilmoqda. Bugungi kundagi holat juda ham tashvishli: xavfli ishlab chiqarishlar va mashinalar havoni shunchalik ifloslantiradiki, tabiatning o'zi bardosh bera olmaydi.

Bugungi kunda "Uglerod neytralligi" tushunchasining kirib kelishi tabiat, atrof-muhitga etkazilgan zararni muvozanatlashtiradigan choralarni ko'rishni anglatadi va taqozo etadi. 2016 yilning bahorida BMTning iqlim bo'yicha konferensiyasida iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvi tuzildi. Hujjatning asosiy maqsadi - barcha mamlakatlarni iqlim o'zgarishiga qarshi kurashishga chaqirish. Asosiy vazifa – sanoat ishlab chiqarishi natijasida o'rtacha yillik harorat ko'tarilishining oldini olish, aks holda Yerdagi barcha hayot halokatli xavf ostida.

Ko'pgina iqlimshunos olimlar kelishuvni qattiq tanqid qilishdi, chunki uning talablari bajarilmagan taqdirda bu davlatga nisbatan hech qanday sanksiyalarning qo'llanilishi unda nazarda tutilmagan edi.

Xo`sh, uglerod neytralligiga qanday yo`llar bilan erishish mumkin. Amalda uglerod izi qoldirmaydigan texnika va texnologiyalardan foydalanadigan jamiyatga o`tish qiyin, yoki amalda erishish mumkin bo`lmagan vazifadir, lekin uglerod neytralligiga erishish mumkin bo`lgan masaladir. Bu maqsadda ko`pgina davlatlar qazib olingan energiya manbalari toshko`mir, tabiiy gaz va neftdan qisman yoki to`liq voz kechish imkonini beruvchi texnologiyalardan foydalanishni, ularning o`rnini qayta tiklanadigan manbalar - quyosh, shamol energiyasi, daryo oqimi kabilarga imkon qadar tezroq o`tishni masalaning asosiy yechimi sifatida ko`rmoqdalar. Yirik ishlab chiquvchilar tomonidan zamonaviy uylarni istish tizimlarida sarflanadigan tabiiy resurslar o`rnini energotejamkor, quyosh nurlaridan quvvat oladigan akkumulyator panellari bilan jihozlash orqali aholining elektr energiyasiga bo`lgan talabining bir qismini yoki barchasini ta`minlashga yordam beradi, bu esa atrof-muhitga yukni sezilarli darajada kamaytiradi.

Ekologik jihatdan toza inson hayoti tamoyillari uglerod izini kamaytirishga yordam beradi: chiqindilarni alohida yig`ish, biologik parchalanadigan komponentlar va maishiy kimyo mahsulotlarini alohida utilizatsiya qilish, atrof-muhitni, xususan CO₂ ning iste`molchisi bo`lgan okeanlar va daraxtlarni himoya qilish, ularga insonning faoliyati natijasida yetkaziladigan zararni kamaytirish kabilar shular jumlasidandir. Ishlab chiqarish jarayonida karbonat angidrid gazi to`g`ridan-to`g`ri asosan transport, turli xildagi yoqilg`i sarfi bilan bo`g`liq bo`lgan ishlab chiqarish ob`ektlaridan kelib chiqadi. To`g`ridan-to`g`ri emissiyalarni kamaytirish havodagi CO₂ miqdorini kamaytirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Tarkibidagi uglerodni to`liq neytrallamay turib neft-kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash imkonini beruvchi texnologiyalar bugungi kunda mavjud emas. Lekin yuqorida sanab o`tilgan sohalarda ishlab chiqarish hajmlari yil sayin ortib borayotgani bu fakt. Ishlab chiqarish korxonalari oldida turgan muhim vazifalardan biri bu tozalash texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar uchun sarmoya kiritish va atrofga chiqarib yuboriladigan CO₂ miqdorini kamaytirishga erishishdir. Ushlab qolingan CO₂ gazi keyinchalik tabiiy gaz va neftdan bo`shagan yer osti bo`shliqlariga yuborish kabilarda foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu masalani hal qilishda asosiy rol konchilik, ekologik islohotlar va atrof-muhit masalalari bo`yicha xalq ta`limi darajasida ta`sir ko`rsata oladigan mamlakatlar rahbarlari qo`lidadir. Uglerod neytralligiga erishish yo`lida ular tomonidan chiqarilgan har bir qaror va uning ijrosiga bog`liq bo`ladi. Shu bilan birga bu borada har bir fuqaroning shaxsiy javobgarlikni his etish kerakligini ham hech qachon unutmasligimiz kerak. Har qanday ongli fuqaro sayyorani qutqarish, saqlab qolish uchun o`ziga bog`liq bo`lgan barcha amallarga tayyor bo`lishi, ekologik toza texnologiyalarni tanlash, biologik parchalanadigan va parchalanmaydigan chiqindilarni farqlay olishi, muqobil energiya manbalariga investitsiyalar, o`rmonlarni tiklash dasturlarida ishtirok etish kabilar shular jumlasidandir. Ba`zilar uglerod neytralligiga erishishni shunchaki xayoliy orzu deb qabul qilsa, boshqalari esa bunga katta umid bog`lamoqda. Har holda, ekologik ong va mas`uliyat sayyoramizda yashab turgan har bir insonning zimmasiga tushadi va yaxshi tomonga o`zgarishlar bizdan boshlanadi.

WAYS OF ORGANIC PRODUCT PRODUCTION AND EFFICIENT USE OF BIOMASS IN AGROCLUSTERS OF BUKHARA REGION

*Ro`ziyeva G.S.
Bukhara State University*

In the 2017-2021 action strategy for the development of the Republic of Uzbekistan, adopted at the initiative of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, special attention is paid to the aspects of introducing new forms of production in the 5 priority areas established in order to improve the economy of the country and increase the tolerance of competition. "BUKHORA AGRO CLUSTER" LLC was established by the decision of the Cabinet of Ministers dated June 14, 2019 No. 500 on measures to establish a modern agrocluster in the Bukhara region to implement the issues for this purpose. The priority plans of the agro cluster include the effective use of arable land with the introduction of advanced scientific achievements,